

Amaliy tadqiqotlar tanlovi mavzusi

“Tibbiyot fanlari” yo‘nalishi

Loyiha mavzusi	Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija
Giyohvand moddalar iste'molini o'smirlik yoshida boshlagan shaxslarda sintetik psixostimulyatorlarga asoratlangan qaramlik terapiyasini optimallashtirish 	Tadqiqot shakli: Amaliy. Ilmiy tadqiqot natijalari: - giyohvandlikning residivlari profilaktikasi samaradorligini oshirish va kasalxonaga yotqizish chastotasini kamaytirish orqali giyohvandlikni davolash uchun sog'liqni saqlash xarajatlarni kamaytirish; - giyohvand moddalarga qaram bo'lganlarning davolanishdan keyin ijtimoiy moslashuv darajasini oshirish va ushbu guruh bemorlari orasida huquqbuzarliklar chastotasini kamaytirish; - profilaktika samaradorligini oshirish orqali o'smirlar orasida giyohvand moddalarni iste'mol qilishning tarqalishini kamaytirish; - giyohvand moddalarga qaram bo'lganlarga ko'rsatiladigan narkologik yordam darajasini oshirish hisobiga mamlakatdagi umumiy narkologik vaziyatni yaxshilash. Natijalarni sinovdan o'tkazish. Olingan natijalar eksperimental tadqiqotlar va tahlillar Sog'liqni saqlash vazirligi tizimidagi tashkilotlarda sinovdan o'tkaziladi va ularning amaliyotda foydalanish uchun qabul qilinganligi to'g'risida Sog'liqni saqlash vazirligining xulosasi olinadi. Ilmiy natijalarni chop etish. Olingan tadqiqot natijalari intellektual mulk obyektlari uchun hujjatlar tayyorlanadi. Tadqiqot natijalari asosida tavsiyanomalar, o'quv qo'llanmalar, hamda nufuzli jurnallarda va <i>Web of Science/Scopus</i> ma'lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda maqolalar chop etiladi Izoh. Ushbu mavzuga taqdim etiladigan ilmiy loyihalar Sog'liqni saqlash vazirligining qo'llab-quvvatlash xati mavjud bo'lganida qabul qilinadi.